



CHUST PICHOQCHILIGI KASB-HUNAR TERMINLARI

Raxmatullayev Anasxon Xamidullo o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilidagi kasbiy lug'at, pichoq yasash sohasiga oid atamalar: pichoq va uning qismlari nomlari, Chust pichoqchiligi kasb-hunar terminlarining tarixiy-madaniy areal xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: til va madaniyat, milliy til, adabiy til, kasbiy lug'at, pichoq yasash, pichoq yasash – pichoq, ustara, xanjar, ilk paleolit, kesuvchi qurollar, bronza davri, mis, temir va mis, Chust pichoqchiligi.

Аннотация: В статье приводится профессиональная лексика на узбекском языке, термины, относящиеся к сфере ножеделия: названия ножей и их частей, а также комментарии по историко-культурным ареальным особенностям профессиональной терминологии чустского ножеделия.

Ключевые слова: язык и культура, национальный язык, литературный язык, профессиональная лексика, ножеделие, ножеделие - нож, бритва, кинжал, ранний палеолит, режущее оружие, бронзовый век, медь, железо и латунь, чустское ножеделие.

Annotation: The article provides professional vocabulary in the Uzbek language, terms related to the field of knifemaking: names of knives and their parts, as well as



comments on the historical and cultural areal features of the professional terminology of Chust knifemaking.

Key words: language and culture, national language, literary language, professional vocabulary, knifemaking, knifemaking - knife, razor, dagger, early Paleolithic, cutting weapons, Bronze Age, copper, iron and brass, Chust knifemaking.

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Bo'lajak hunarmandlarni, hunarga qiziquvchi yoshlarni o'z kasbining ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy-madaniy tariximizni chuqur o'rgatish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, xalq hunarmandchiligimiz tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirish kabi masalarni yoritib berish ham tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish bosqichlari va tarmoqlari. O'zbek xalq amaliy san'ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Uning er usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzey. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunln va tarixiy bebaho san'at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va ma'naviy merosni tashkil etadi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan turlari: ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, eargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabilarning o'ziga xos tomonlari, bajarish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sobik sho'ro tizimi vaqtida asta-sekin yo'qolib ketish xavfi



ostida koldi. Bugungi kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo'yi yaratgan ijodiy mehnati natijasida yaratgan amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orkali yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar go'zallikka intilishga chaqirganlar.

Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me'morlik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at kabi sohalarni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi.

Shaharlarning har tomonlama chiroyli va ulug'vor qilishga intildi. Jumladan, tosh xamda g'ishtlik yo'llar, keng, katta, ravon ko'chalar qurdirgan. Bir-biridan mahobatli binolar soldirgan. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari, SHohi zinda va Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir.

XVIII asr oxiri – XIX asrlarda Qo'qonda, Farg'ona, Buxoro kabi shaharlarda etuk xalq ustalari etishib chiqdi. Misgarlik, nakqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san'at turlari rivojlandi. Qadimda hunar muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan kadrlangan, O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan, desak xato qilmagan bo'lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, Samarqand viloyatida Urgut, Farg'ona viloyatida Qo'qon, Marg'ilon, Namangan viloyatidagi Chust shahri hunarmandchilik markaziga aylangan.

Hunarmandlar o'sha davrlarda mahallalarga bo'linib yashagan. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Chust shahrida pichoqchilar mahallasi bo'lib, u erda shahardagi hamma pichoqchi ustalar – 120 ta oila yashagan.



Har bir hunarda mahalladagi qo'ni-qo'shnilar o'rtasida raqobat bo'lgan. Xususan, pichoqchilikda ham. Chunki, kimning mahsuloti sifatli bo'lsa, xalq o'shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlagan. Har bir ustaning o'z rastasi bo'lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo'lgan. U barcha rastalarga kiritilgan mollarni kuzatib ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotik boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori qasodga uchragan.

Hozirgi asosiy vazifalardan biri maktab o'qituvchilariga hunar va unga bog'liq so'z – atamalarni o'rgatishdir. Ular bizning ma'naviy qadriyatlarimiz hisoblanadi.

Buning uchun avvalom bor, hunar nima? Hunarli, hunarmand, hunarmandchilik deganda nimani tushunasiz? degan savollarga javob berishimizga to'g'ri keladi.

Hunar – muayyan tayyorgarlikni talab etadigan va tirikchilik manbai bo'lgan ijodiy mehnat faoliyati.

Hunarli – biror hunarni puxta egallagan shaxs.

Hunarmand – biror hunar turi bilan shug'ullanuvchi usta.

*Hunarmandchilik*ning asosiy belgilari: oddiy mehnat qurollari yordamida biror ishning bajarilishi va ishlab chiqarishning yakka tartibdaligidir. Hunarmandchilikning *ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, savatchilik, pichoqchilik, misgarlik, zardo'zlik, bo'yrachilik, taqachilik, gilamdo'zlik, qulfsoslik, tunkasozlik, kigiz bosish, suyak o'ymakorligi, kashtachilik, to'quvchilik, rixtgarlik, etikdo'zlik, toshtaroshlik* kabi turlari borligini doimo uqtirib turmoq lozim, aks holda bu til birliklarimiz ham lug'atimizdan yo'qolib qolishi mumkin.

Dunyoda qanday hunar bo'lmasin, albatta uning ustalari va shogirdlari bo'ladi. *Naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, pichoqchilik, bo'yrachilik, gilamdo'zlik, yogoch o'ymakorligi* kabi hunarlarning o'ziga yarasha ustalari bor. Har bir hunarmand ustaning shogirdi bo'ladi. Agar ustaning shogirdi bo'lmasa, uni xuddi mevasiz daraxtga o'xshatish mumkin. Chunki o'z hunarini ustalarimiz avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tkazib



kelganlar. Shuning uchun xam Alisher Navoiy quyidagi misralarni yozib qoldirgan: «Hunarni asrabon netkumdir, oxir, Olib tuproqamu ketgumdir, oxir.» («Farhod va SHirin»).

Nodir pichoqlar yasashda o‘zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam topiladi. Pichoq yasash boshlang‘ich paleolit davridan ma‘lum bo‘lgan. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo‘lgan va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf etilishi pichoqchilik san‘ati taraqqiyotida katta burilish bo‘ldi. O‘rta Osiyoda pichoqchilikning eng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo‘lgan, Ispaniya va Itliyada esa tez usib rivojlanib ketgan.

XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyalarda pichoqchilikni kasb sifatida ta‘qiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatishgan. XVII asr boshlarida [pichoqning ochib yopiladigan](#), **pakki**, **ustara** va boshqa cho‘ntakda *saqlanadigan pakkilar* yuzaga keldi.

Arxeologik topilmalardan ma‘lumki, O‘rta Osiyo territoriyasida million yil avval 2 ming yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bolalik tepa, [Afrosiyob](#), Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma‘lum bo‘ldiki, pichoq uy-ro‘zg‘ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan.

VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari o‘zgargan. XV-XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo‘ldi. Buni Navoiy, Bobir asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko‘rish mumkin. Keyinchalik pichoqchilikning o‘ziga xos maktablari paydo bo‘ldi.

Farg‘ona vodiysi, [Samarqand](#), Buxoro, Tashkent, Xorazm, [Qashqadaryo](#), Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular o‘zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan O‘rta Osiyoda qadimdan [metallni qayta ishlash](#), ya‘ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit deyarli mavjud edi. Misning tabiiy zapaslari, kumush, qurg‘oshin alyuminiy kabi materiallar juda ko‘p edi.



Chust shahrida hozir ham pichoqsozlar avlodi yashaydi. Oʻrta Osiyo territoriyasidagi viloyatlarda bunday mahallalar koʻp boʻlgan.

Pichoqdan kesuvchi asbob tariqasida kunda foydalanilsa, qadimda Oʻrta Osiyoda erkaklarning [eng zarur ish quroli](#), bezagi tariqasida foydalanilgan, Pichoqlarni badiiy bezash ham katta rol oʻynagan. Shuning uchun ham Sharq madaniyatining eng yaxshi anʼanalarini qayta tiklash va oʻzlashtirish natijasida Oʻzbekiston jum-huriyatidagi pichoqsozlar milliy pichoqni sanat darajasiga koʻtarganlar. Mashhur venger sayyoxi H.Vamberi oʻzining ajoyib “Oʻrta Osiyo boʻylab sayohat” asarida Turkiston pichoqchiligi haqida bunday deydi: “Bir xillari sifat jihatidan hisorlilarnikidan ustun boʻlmasa ham, ammo, butunlay Oʻrta Osiyoga tarqalgan boʻlib, xoʻjalar [tomonidan hatto Eron](#), Arabiston, Hindistonga olib bordilar va oʻz mahalliy joyidan koʻra, chet ellarda pichoqlar 3-4 baravar qimmat sotilar edi”.

Pichoq – bir tomoni oʻtkirlangan, plastinkasimon kesuvchi asbob. Qadimda tosh, mis, bronzadan ishlangan. Umuman, ilk paleolit davridan maʼlum. Temir davridan boshlab [temir Pmchoqlar keng tarqalgan](#). Pichoqlar tigʻ, dastadan iborat boʻladi.

Pichoq tuzilishiga koʻra: *Toʻgʻri pichoq, Qayqi pichoq, Bodomcha pichoq*, katta-kichikligiga koʻra: *Oʻrtasuyamliq Gezliq Bolapichoq, Chalabuzar*;

bezatilishiga koʻra: [Sodda pichoq](#), *Guldor pichoq, Chilmixagulli pichoq, [Rufta pichoq](#)*;

dastasining tuzilishiga koʻra: *Yogʻoch sopli, Suyak sopli, Shoxdastali, Dandon sopli, Oʻn [uch sadafli](#), Oʻn besh sadafli*;

yasalish usuliga koʻra: *Tus pichoq, Qorasuv pichoq, [Shahrixon pichoq](#), Buxorcha pichoq, Poytugʻ pichoq, Qoʻqon pichoq*, deb yuritiladi.

Dastlab pichoq kosiblik doʻkonlarida ishlab chiqarilgan. Hozir pichoq, asosan, sanoat korxonalarida ishlab chiqarilmoqda. Ishlatilishiga koʻra roʻzgʻor pichoqlari, bogʻdorchilik kosibchilik va boshqalarda qoʻllanadigan xillari bor.



Pichoq Oʻrta Osiyoda, pichoqning [oshxonada ishlatiladigan](#), 17-asr boshlaridan esa ochildir-yopiladigan (choʻntakda saqlanadigan – *pakki*, *ustara* va b.) xillari ham yuzaga kelgan. Oʻzbekiston territoriyasidan millodan avvalgi 2- ming yillikka oid pichoq namunasi topilgan. Afrosiyob, Bolalik tepa, Varaxsha devorlariga chizilgan rasmlardan pichoqning uy-roʻzgʻordan tashqari harbiy qurol sifatida foydalanilganligini ham anglash mumkin. 6–12- asrlarga oid pichoq [namunalari metall tarkibining](#), pichoq yasash texnikasining va bezaklarining oʻzgarib, taraqqiy etib borganligini tasdiqlaydi.

Navoiy, Bobir asarlariga ishlangan miniatyuralarda (15-17-asrlar) yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalari koʻrsatilgan. Fargʻona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Qashqadaryoda P. ning qadimiy markazlari boʻlgan. Hozir Oʻzbekistonda 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari bor. Parkent, [Shahrixon](#), Chust, Qorasuv, Qoʻqon, Chimyon, Boysun, Buxoro va x.k. Chust, Shahrixon, Qorasuvda (Fargʻona vodiysi) ishlangan pichoqlar milliy shaklining nafisligi, ixcham va oʻtkirligi bilan qimmatlidir. Bu pichoqlar respublikamizda va uning tashqarisida muhim sovgʻasifatida ham qadrlanadi.

Pichoq turlari. Oʻrta Osiyoda pichoq alohida razmiy maʼnoda yaʼni barcha yovuzliklardan saqlash maʼnosida masalan, “dandon sopli pichoq” va “karkesopli pichoq” lar iloxiy hisoblangan. Bu [pichoqlar kishini ins-jinsdan](#), yomonlikdan asrashda muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Pichoq dastasini ushlash [ilon chaqishidan](#), ayollarni esa farzandsizlikdan asraydi deb irim qilishgan. Ushbu pichoqlar hozir ham noyob, hatto ustalar uchun ham kamyob hisob. pichoqni yasash jarayonida pichoqni tigʻi oʻtkirlash uchun ishlatiladigan suv tomoq ogʻrigʻi hamda yurakni davolashda ishlatilgan. [Bundan tashqari kashtachilikda](#), meʼmorlik bezagida, sopolchilikda pichoqni ramziy holatda tasvirlaydilar

Toʻgʻri pichoq – qadimdan ishlatilib kelinayotgan pichoq turi boʻlib, pichoqchilikda pichoq tigʻining uchi qayrilmay toʻgʻri chiqqan boʻladi. Shuning uchun Margʻilonda toʻgʻri



pichog deb yuritiladi. Asakada bu pichogqni ribaq Namanganda esa to'g'ri pichog yoki hanjar nusxa deb ataladi.

Qaychi pichog – pichogchilikda pichogning bir shakli bo'lib, tig'ning uchi orqasiga ozgina qayrilgan bo'ladi. Uni qilichak pichog chaqmoqi pichog deb ham yuritiladi.

Bodomcha pichog – uning orqa qirrasidan uchidan taxminan 4–5 smcha joyi ichiga kamalak bo'lib kirgan bo'ladi. Ko'qonda qozoqcha, Marg'ilonda qozoqi, Namanganda bodomcha [va qozoqcha deb yuritiladi](#), Pichoglar katta-kichikligiga ko'ra o'rtasuyamli, kezlik bolapichog va chalabuzar mardona pichog turlariga bo'linadi.

O'rtasuyamli pichog – pichog turlaridan biri bo'lib, tig'ining uzunligi o'rtacha suyamda bir suyam keladigan pichogdir

Kezlik pichog – pichogchilikda balalar uchun moslab yasalgan pichog. Uni bola pichog va to'g'ri pichog deb yuritiladi. Qiz to'yida kelinning ukasi yoki jiyaniga kuyov tomonidan to'y pichog'i in'om etilgan. Bu ham o'zbeklarning millim urf-odati bo'lib, an'ana tariqasida avloddan-avlodga o'tib kelgan

Bolapichog – qadimdan ishlatilib kelinayotgan bolalar uchun moslab yasalgan pichog turi.

Chalabuzar – pichog'ining tig'i bo'g'zidan qayrilib, dastasiga yopilgan bo'ladi. Bu pichogqni qadimda qinga solib belda osib yuritilgan. Uni yana kallabuzar, Cho'stda chalaavzal deb yuritadilar.

Mardona pichog – pichogsozlar kishilarni yoshiga qarab har xil pichoglar ishlaganlar. Katta yoshdagi kishilar uchun ishlangan pichogqlarni «mardona pichog» deb yuritilgan. U turli-tuman ko'rinishga ega bo'lib, ajoyib qilib bezatiladi. Tig'i po'latdan yasalgan pichoglar alohida ajralib turgan. Bezatilishiga qarab to'rt turga; ya'ni [sodda pichog](#), guldor pichog chilmixgulli va zufta pichogqlarga bo'linadi.



Sodda pichoq – qadimdan uy-ro‘zg‘or ishlarida ishlatiladigan oddiy pichoq. Unga xech qanday gul yoki naqsh solinmagan, hashamsiz bo‘ladi. U juda ko‘p ishlatiladi. Har bir xonadonda ko‘rish mumkin.

Guldor pichoq – pichoqchilikda gulli pichoq deb ham yuritiladi. Uning dasta hamda [gul-bandiga naqshlar solingan](#), chiroyli pichoq.

Chilmixgulli pichoq – (qirqmix gulli pichoq) pichoqchilikda pichoq turlaridan biri bo‘lib, uni chilmixa pichoq deb ham yuritiladi. Uning dastasiga chilmixlar qoqib, guldor qilib yasalgan pichoq bo‘lib, u qadimdan ishlatilib kelinadi.

Ro‘fta pichoq – tig‘ining yuzi sidirg‘asiga charxlangan bo‘ladi. Ro‘fta tojikcha ro‘fta, ya‘ni sidirilgan ma‘nosini anglatadi. Bu pichoqning yuziga zok (achchiqtosh) surtiladi va ishlatib o‘tmas qilinsa, o‘tkirlash uchun charhlanmay qayiriladi. Marg‘ilonda qayroqi lekin charxlanadigan turki charhi deb yuriti-ladi. Qo‘qonda bu pichoqni ro‘fta deb yuritiladi. Ro‘ftani dami charxlanmaydi. Dastasining tuzilishiga ko‘ra pichoqlar yog‘och sopli, suyak sopli, dandon sopli, o‘n besh sadafli turlarga bo‘linadi.

Yog‘och sopli pichoq – yog‘och suqmasopli, yog‘och sopli pichoq deb ham yuritiladi. Suqmasi yog‘ochdan ishlangan pichoq turi. Shoadastali pichoq – uni shoxa, mug‘uz, mug‘uz dastali pichoq deb ham yuritiladi. Bu pichoqni dastasi hayvon shoxidan yasalgan bo‘ladi.

Dandon sopli pichoq – bunday pichoqning sopi filning tishi va suyagidan tayyorlanganbo‘ladi. Dandon–tojikcha tir degani. Bunday pichoqlarni narxi qimmat bo‘lgan. Dandon sopli pichoq qadimda ilohiy hiso6lanib, kishini yomonlikdan asrashda ahamiyatga ega bo‘lgan. Odamlar bu pichoqning dastasini ushlaganlarida ilon chaqishidan, ayollarni esa farzandsizlikdan asraydi deb ishonganlar.

O‘n uch sadafli pichoq – bunday pichoq dastasiga o‘n uch dona sadaf ko‘z solingan. Shuning uchun bu pichoqni un uch sadafli pichoq deb yuritiladi. Xuddi shuningdek o‘n uch sadafli pichoq dastasiga esa sadafdan o‘n besh dona gul solingan bo‘ladi. Gul o‘rniga ko‘z



deb ham yuritiladi. Yasash usuliga ko'ra pichoqlar cho'st pichog'i, qorasuv pichog'i, shahrixon pichog'i, poytug' pichog'i, buxo-rocha pichoq va boshqalar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva M. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tarixi – Toshkent: Fan, 180 bet. – 2016.
2. Bobojonov Q. O'zbek xalq hunarmandchiligi va uning leksik tarkibi. – Toshkent: Ma'naviyat, 200 bet. – 2020.
3. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 320 bet. – 1992.
4. Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 280 bet. – 1980.
5. Vamberi H. O'rta Osiyo bo'ylab sayohat. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti 210 bet – 1990.
6. Qosimova G. O'zbek kasbiy leksikasining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 175 bet. – 2018.